



GLOBAL INTEGRATSIYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 30-aprel – 1-may



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TÜRKİYE CUMHURİYETİ ATATÜRK KÜLTÜR
DİL VE TARİH YÜKSEK KURUMU
TÜRK DİL KURUMU**

ANKARA HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O'QITISH VA
MALAKA OSHIRISH MARKAZI**

“GLOBAL INTEGRATSIYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR”

mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 30-aprel – 1-may

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO'K: 494.3

KBK: 81.63

G 54

Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar
[Matn]: to'plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 674 b.

“Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar” mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami – turkiy tillarda alifbo va imlo muammolari, turkiy tillarning grammatik qurilishi, grammatik muammolar, turkiy tillar leksikasi va terminologiyasi masalalari, modellashtirish muammolari, turkiy shevalar taraqqiyoti, shuningdek, tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvistik ekspertiza, milliy terminologiya, o'quv lug'atchiligi, ona tili ta'limi, lingvoma'naviyatshunoslik kabi qator zamonaviy amaliy lingvistika yo'nalishlarini qamrab olgan ilmiy-amaliy anjuman.

Anjuman materiallari faqat bir marotaba nashr etiladi.

To'plamning elektron shakli ham e'lon qilinadi.

To'plam va uning elektron shakli bir xil kuchga ega.

Anjumanning maqsadi – turkiy tillar taraqqiyotiga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaralarga undaydigan, yangi, mustahkam konsepsiyaga ega, boshqa jurnallar va anjuman materiallarida nashr etilmagan tadqiqotlar nashrini amalga oshirishdir.

Ushbu to'plam tilshunos olimlar, ilm-fan vakillarining talab va takliflariga muvofiq Buxoro viloyatining Kogon tumanida ikkinchi marotaba o'tkazilgan **“Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilarining ilmiy maqola va tezislari jamlangan ilmiy materialdir.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar).

Bosh muharrir

f.f.d., akademik Sh.Sirojiddinov

Tahrir kengashi

Muyassar Saparniyozova, Muhayyo Hakimova, Marhabo Umirzoqova, Farhod Bobojonov, Nizomiddin Qo'ldoshev, Husniddin Suyunov, Sobir Ahmedov, Hamid Yodgorov, Jo'ra Xudoyberdiyev, Shahboz Zarnasov, O'ktam Begimov, Abdurashid To'ychiyev

Tahrir hay'ati

Samixon Ashirboyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Zaynabiddin Abdurashidov (Turkiya) – filologiya fanlari doktori, professor
Baxtiyor Mengliyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Abdulhay Sobirov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Muhammad Hakimov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Murodqosim Abdiyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Bibish Jo'rayeva (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Sulton Normamatov (O'zbekiston) – filologiya fanlari doktori, professor
Gulaisha Sagidolda (Qozog'iston) – filologiya fanlari doktori, professor
Navrouzova Nurida (Ozarbayjon) – filologiya fanlari doktori, professor
Nodir Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston) – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9910-06-498-2

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

QARINDOSHLIK TERMINLARI ISHTIROK ETGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA METAFORA

Maftuna SHARIPOVA*

Dilora BAFOYEVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada qarindoshlik terminlari qatnashgan o'zbek xalq maqollari, ularning etimologiyasi, xalqimiz turmush tarziga aloqador urf-odat, milliy marosim, diniy qarashlar kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan. Dastlab metaforaga oid nazariy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, badiiy asarlar tarkibidan qavm-qarindoshlik terminlari ishtirok etgan maqollarning semantik xususiyatlari batafsil izohlangan. Ushbu maqollarning sinonimik, antonimik, ko'p ma'nolilik, variantlilik imkoniyatlari ochib berilgan hamda ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra mavzuviy guruhlariga ajratilgan. Maqolada ayrim milliy paremlar o'zga xalq maqollari bilan taqqoslanib, ularning o'xshash hamda farqli jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari, maqol tarkibidagi qarindoshlikka oid leksemalar darajalanish xususiyatiga ko'ra tartiblangan. Izlanish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Lingvopoetik tahlil orqali metafora hodisasi kuzatiladigan maqollarning til xususiyatlari, ma'no qatlamlari, ijtimoiy ahamiyati, xalqning ruhiy dunyosi kabilar o'rganilishi asoslangan. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishdir. Hayotimizni metaforalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biridir. F. Nitsshe ta'kidlaganidek, metaforani inkor qilish – insonni inkor etishdir. Qavm-qarindoshlik terminlari ishtirok etgan xalq maqollarini metaforalashuv jihatidan badiiy asarlar tarkibida ma'lum ma'noda ifodalashiga ko'ra quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin. O'zbek tilida bir qator maqollar inson qadr-qimmatini turli darajada ifodalash maqsadida qo'llanilishi aniqlandi. Xalqning ijod mahsuli bo'lgan maqollar asrlar mobaynida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib kelgan bebaho boylik hisoblanadi. Ular tarkibida qo'llangan qavm-qarindoshlik terminlarini tadqiq etish ajdodlarimiz o'tmishi, turmush-tarzi, urf-odati va falsafasidan xabardor bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, bu terminlarni lingvopoetik tahlil qilish orqali o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini yaxshiroq anglash, qavm-qarindoshlik terminlari orqali xalqning o'zaro munosabat, qadriyat va ruhiyatlarini qanday aks ettirishini tushunish mumkin bo'ladi. Bu maqollarda tez-tez uchraydigan oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni, jamiyatdagi turli qatlamlarni, ijtimoiy rollarni, o'zaro hurmat va sevgi kabi hissiyotlarni o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, maqollar tarkibida qo'llangan metaforalarni tahlil qilish, ularning nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixologik nuqtayi nazardan ham qanday ahamiyatga ega ekanini ochib beradi. Bu jarayon o'zbek xalqining o'ziga xos fikrlash tarzini, qadriyatlarini va tarixiy tajribasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: maqol, parema, qarindoshlik terminlari, lingvopoetika, lingvopoetik tahlil, metafora, gradatsiya, parallelizm.

* BuxDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD) behruz.lux.stal@93gmail.com.

* BuxDU talabasi bafoevadilora61@gmail.com

Metaphor in Uzbekistan Folk Proverbs Containing Kinship Terms

Annotation


This article presents Uzbek folk proverbs containing kinship terms, their etymology, customs related to the lifestyle of our people, national rituals, and religious views. Initially, theoretical views on metaphor are presented. Also, the semantic features of proverbs containing kinship terms from literary works are explained in detail. The synonymous, antonymic, polysemous, and variant possibilities of these proverbs are revealed and divided into thematic groups according to the meaning they express. The article compares some national proverbs with other folk proverbs and highlights their similarities and differences. In addition, the lexemes related to kinship in the proverb are arranged according to their gradation. The methods of observation, description, and comparison were used during the research. Through linguopoetic analysis, the linguistic features of proverbs in which the phenomenon of metaphor is observed, their layers of meaning, social significance, and the spiritual world of the people are studied. Metaphor is the transfer of the name of one object to the name of another object based on a certain similarity between them. Our life cannot be imagined without metaphors. It is one of the means of expressing the national worldview. As F. Nietzsche noted, to deny metaphor is to deny man. Folk proverbs involving the terms of national kinship can be divided into the following thematic groups according to their specific meaning in the composition of artistic works in terms of metaphorization. It was found that a number of proverbs in the Uzbek language are used to express human dignity to varying degrees. Proverbs, which are the products of folk creativity, are an invaluable treasure that has been honed over the centuries based on life experiences. Studying the terms of kinship used in them allows us to become aware of the past, lifestyle, traditions and philosophy of our ancestors. Also, through a linguopoetic analysis of these terms, it is possible to better understand the historical and cultural heritage of the Uzbek people, to understand how the terms of kinship reflect the mutual relations, values and psyche of the people. This allows us to study the family and social relations, different layers of society, social roles, and feelings such as mutual respect and love that are often found in proverbs. In this way, analyzing the metaphors used in the proverbs reveals their significance not only from a linguistic, but also from a cultural and psychological point of view. This process helps to understand more deeply the unique way of thinking, values and historical experience of the Uzbek people.

Key words: proverb, parema, kinship terms, linguovopoetics, linguovopoetic analysis, metaphor, gradation, parallelism.

Har bir millatning etnografiyasi, urf-odati, turmush-tarzi hamda dunyoqarashini o'zida aks ettiradigan nodir va noyob meros – bu uning xalq og'zaki ijodi namunalari. Xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi maqollar bo'lib, ular ma'lum darajada hayot qiyinchiliklariga bardoshli bo'lishda, mushkul vaziyatlarni oson yengib o'tishda ma'lum ma'noda xizmat qiladi. Tilshunoslikda bugungi kunga qadar maqollar turli xususiyatlariga ko'ra tadqiq etilganligini kuzatish mumkin, ammo hozirga qadar o'zbek tilshunosligida qavm-qarindoshlik terminlari asosida shakllangan maqollarning lingvopoetik xususiyatlari to'liq o'rganilmagan, deya olamiz. Mazkur terminlar ishtirok etgan o'zbek xalq maqollarining aksariyatida metafora hodisasi kuzatilgan o'rinlar talaygina. Ular insonning ichki kechinmalari va tashqi olamdagi faoliyati bilan bog'liq

holda yuzaga keladi. Lingvopoetik tahlil orqali metafora hodisasi kuzatiladigan maqollarning til xususiyatlari, ma'no qatlamlari, ijtimoiy ahamiyati, xalqning ruhiy dunyosi kabilari o'rganiladi. Metafora (*yunoncha metaphora – ko'chirish*) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chirishdir (Nurmonov, 2013, 190-b.). Hayotimizni metaforalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biridir. F. Nitsshe ta'kidlaganidek, metaforani inkor qilish – insonni inkor etishdir. Metafora shunday serqirra hodisa bo'lib, o'zbek tilshunosligida metaforalarning o'rganilishiga doir bir qator tadqiqotlar mavjud. Xususan, XX asrning o'rtalaridan boshlab R.Qo'ng'irov, M.Mirtojiyev, M.Yo'ldoshev, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, G.Qobuljonovalar tomonidan bir qator metaforaga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Sharipova, 2023, 12-b.). B.Sarimsoqov metaforani adabiy istiloh deb hisoblaydi hamda uni o'xshatish (tashbeh)ning o'xshatish vositalari tushib qolishi bilan farqlaydi. O'xshatishda qiyos hosil qiluvchi ikki komponent ishtirok etadi. Metafora esa o'xshatishda – “kabi”, “singari”, “misli”, “bamisoli” kabilarning tushib qolishi bilan farqlanadi (Саримсоқов, 2004, 49-b.).

Qavm-qarindoshlik terminlari ishtirok etgan xalq maqollarini metaforalashuv jihatidan badiiy asarlar tarkibida ma'lum ma'noda ifodalashiga ko'ra quyidagi mavzuviy guruhlar ajratish mumkin:




1. Holatni ifodalashga xizmat qiluvchi maqol:

“Hozir erkak – avra, xotin – astar, deb turgan payti. Ya’ni avra hech qachon astardan yuqori bo’lmaganidek, erkak xotindan aql o’rganmaydi. Bir do’q bilan popugi pasaygan xotini o’zicha po’ng’illab qo’ydi: – Hamma erkaklarning ahvoli shu: yoshrog’ini ko’rsa, iliqadin qoladi. Jannatxon qanday juvon edi?!” (Ulyxpan, 1995, 58-b.).

Ushbu parchadagi maqolda kiyim-kechakdagi “avra” (sirdan ko’rinadigan qism) va “astar” (ichki, ko’rinmaydigan qism) tasvirlari orqali erkak va xotinning turmushdagi rollari ta’kidlangan. O’zbek tilining izohli lug’atida avra so’zining “kiyim, ko’rpa, ko’rpacha kabi narsalarning tashqi, sirtqi qavati”, “yostiqlarning sirtqi jildi” semalari

(O'TIL, 2006, 32-b.), *astarning esa "arabchada yopingich, parda; forschada ichidan tikilgan mato"*, *"kiyim yoki ko'rpa, ko'rpacha singari narsalarning ichki qavatini, ichki tomoniga tikilgan material"* ma'nolari keltirilgan (O'TIL, 2006, 110-b.). Avra-astar birikmasi esa *"forscha avra va astar"* deb izohlangan (O'TIL, 2006, 32-b.). Maqolda *avra* erkakning tashqi dunyoda ko'rinadigan, ko'chada ishlaydigan, oilaning moddiy ta'minoti uchun javobgar bo'lgan tasviri bo'lsa, xotin *astar* kabi uy-ichki ishlar, oila ro'zg'orini boshqarish, uyda zarur bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirish orqali oila farovonligini ta'minlovchi qismi sifatida tasvirlanadi. Paremada erkak oilani tashqi tomonlarga ta'minlashi, ayol esa oilaviy masalalar bilan shug'ullanishi ta'kidlangan. Ushbu fikrni *"Xotin – uy bezakchisi, Er – uy ko'makchisi"*, *"Uyni uy qilgan – er topishi-yu, Xotinning ko'rpa tikishi"*, *"Er – daladan, Xotin – uydin"*, *"Er qoplar, Xotin saqlar"* maqollari orqali ham davom ettirish mumkin. Qozoq tilida ushbu maqolning quyidagi varianti uchraydi: *"Әйел – үйдің көркі, Еркек – мұздің көркі"*. (Ayol uyning ko'rki, Erkak to'g'rilik ko'rkidir). Maqolda shaxsning oiladagi ijtimoiy mavqeyiga e'tibor qaratilgan. Ushbu paremada turmushdagi vazifalar haqida an'anaviy qarashlar yoritilgan bo'lib, unda majoz orqali erkak va xotin o'rtasidagi jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy majburiyatlar taqqoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Maqolda gradatsiyani ham kuzatish mumkin. Chunonchi, erkak va xotin leksemalari milliy mental xususiyatlardan kelib chiqqan holda mavqega nisbatan darajalanishni yuzaga keltirgan. Oiladagi ijtimoiy mavqening ortib borishiga ko'ra:



O'zbek tilining izohli lug'atida *xotin* so'zining *"jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko'rish, emizish qobiliyatiga ega odam; ayol; Biror erkak nikohidagi ayol"* ma'nolari keltirilgan (O'TIL, 2006, 415-b.). Xotin leksemasining etimologiyasi quyidagicha: *"ayol"*, *"erga tekkan ayol"*. Xotin leksemasi dastlab *yuqori martabali kishining umr yo'ldoshi* ma'nosini anglatgan; ma'no taraqqiyoti natijasida umuman *biror erkak kishining umr yo'ldoshi* ma'nosini va boshqa ma'nolarni anglata boshlagan (Рахматуллаев, 2000, 402-b.). Sinonimlari: One's better half (Xotin – uyga bezak, erga – ko'mak) (ingliz xalq maqoli), Своя жена – своя и краса (Xotin – uyga bezak, erga – ko'mak) (rus xalq maqoli).

2. Qadriyat ulug'langan maqol:

"– Bahay! Mehmon otangdan ulug'! – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon! " (Hoshimov, 2013, 51-b.).

"– O'zbekning maqolini eshitganmisan? – dedi ko'zimga tikilib, salqigan qovoqlari ipillab ketdi. Mehmon – otangdan ulug'. Zo'r maqol-a? – Tag'in kulgan edi, yotal tutdi. – Shunaqa dedi tuflab. – Uyingni to'rini bo'shatib berasan. Oxirgi ko'ylagingni sotib bo'lsa ham dasturxon yozasan. Noz-ne'matlarni to'ldirib tashlaysan" (Hoshimov, 2002, 120-b.).

“– Nima mehmonlardan xurmo qarzing bormi, er-chilim olgur? – Qarzim yo‘q, ena, qarzim yo‘q. Lekin mehmon atoyi Xudo-da. Mehmon otadan ulug‘-da. Mehmonlar orasida kim degan odam bolamiz?” (Mypod, 1994, 125-b.).

“Garchi Edigey yotish oldidan toza havoga chiqib aylanib kelgan bo‘lsa-da, uy egalari unga qulay issiq ko‘rpa-toshak solib, mehmon – otangdan ulug‘, deb maxsus saqlab qo‘yilgan toza choyshab solib bergan bo‘lsalar ham yangi o‘rinda hadeganda ixlay olmadi” (Айтматов, 1989, 278-b.).

O‘zbek tilida bir qator maqollar inson qadr-qimmatini turli darajada ifodalash maqsadida ishlatiladi. Mazkur maqolda “mehmon” va “otangdan ulug‘” degan so‘z va birikmalar orasidagi bog‘lanish metafora sifatida ishlatilgan. Bunda mehmonning “ulug‘ligi” bilan uning qadriyatini va unga bo‘lgan hurmatni ko‘rsatish maqsad qilinadi. Mehmondo‘stlik oliy fazilatlardan biri bo‘lib, bu inson qalbining kengligi va yuksak fazilatining ifodasidir. Konfutsiy shunday degan: “Mehmondo‘stlik – dunyoning har bir burchagida birday qadrlanadigan yuksak fazilatdir”. Har bir xalqda mehmonni kutib olish, unga hurmat ko‘rsatish, o‘zaro ehtirom va mehr bilan munosabatda bo‘lish qadimiy an‘analardan sanaladi. Bizning xalqimiz mehmondo‘stligi bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi hamda shu xislati bilan qadimdan mashhur hisoblanadi. Shuning uchun ham mehmonni e‘zozlash, hurmat qilish va boshqa mehmondo‘stlikka chorlaydigan bir nechta maqollar shakllangan bo‘lib, ularda xalqimizning mehmonga bo‘lgan samimiy munosabati o‘z aksini topgan. Mazkur maqol mehmonni ulug‘lash, unga hurmat ko‘rsatish kerakligini ta‘kidlaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida mehmon leksemasining “to‘y, ziyofat va shu kabilar munosabati bilan yo‘qlab kelgan shaxs”; “chetdan tashrif buyurgan vaqtinchalik qo‘ngan” ma‘nolari borligi ta‘kidlangan (O‘TIL, 2006, 586-b.). Shuningdek, mazkur maqolda mehmonni ko‘proq qadrlash, uni oila a‘zolari hamda yaqinlarga nisbatan ko‘proq hurmat qilish hatto otadan ham ulug‘ sanab unga yaxshi munosabatda bo‘lish haqida aytilgan. Varianti: “Mehmon – otangdan aziz”. Sinonimi: “Ota ulug‘, otadan mehmon ulug‘”.

3. Qadrlilik darajasiga ko‘ra maqol:

“Biz juda ahil va bir-birimizga mehribon edik... Shuni ham aytish kerakki, ayniqsa tog‘ va dovonlarda yashovchi yo‘l tuzatuvchilar uchun mustahkam oila – yaxshi xotin osh-nondek zarur” (Aytmatov, 2009, 113-b.).

Maqolda insonning hayotida ayol kishining o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatish maqsad qilingan. “Xotin” va “osh-nondek zarur” degan so‘z va birikmalar orasidagi bog‘lanish metafora sifatida ishlatilgan. Maqolda turmushdagi ayolning ahamiyati ta‘kidlangan. Bu yerda “osh-non” tasviriy vosita sifatida ishlatilgan bo‘lib, bu mahsulotlar har bir oilaning asosiy ehtiyoji bo‘lishi bilan, “yaxshi xotin” ham er-xotin o‘rtasidagi oilaviy tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyatning mustahkam poydevori ekanligi ko‘rsatiladi. Sinonimlari: “Yaxshi xotin – yarim rizq”, “Yaxshi xotin – umr voli”, “Yaxshi xotin – uy bo‘stoni”, “Yaxshi chopon – to‘y ziynati, Yaxshi xotin – uy ziynati”, “Yaxshi xotin – xazina”, A good wife and health are a man’s best wealth (Yaxshi xotin – xazina) (ingliz xalq maqoli), Не надобен и клад, коли и мужа с женой лад (Yaxshi xotin – xazina) (rus xalq maqoli). Antonimlari: Women are necessary evils (Xotinning yomoni – umrning egovi) (ingliz xalq maqoli), Одному с женою горе, другому вдвое (Xotinning yomoni – umrning egovi) (rus xalq maqoli).

4. Vatanparvarlik ulug‘langan maqol:

“– Otang bolasi bo‘lma, el bolasi bo‘l, deganlar. Elga xizmat qilmoq burchimizdir, – Navoiyning ishonchi va iltifotidan ta’sirlanib, javob berdi Arslonqul. – Rahmat, dedi

Navoiy, – Vatan va uning salomatligi uchun har bir jon har lahza o'zini qurbon etmoqqa hozir turmog'i kerak" (O'zbek, 2016, 429-b.).

Maqol nasihat usulida aytilgan. Inson hech qachon otasining obro'-etibori bilan mag'rurlanib, faxrlanib yurmasligi kerak. Agar odam el orasida hurmat topmoqchi bo'lsa, o'z vatanini sevishi hamda xalqi uchun fidokorona xizmat qilishi kerak. Shundagina uni el-yurt tan oladi va hurmat qiladi. Erkin Vohidov "Nido" dostonida ushbu paremani mohirona qo'llagani ko'rishimiz mumkin:

"Bobolarning hikmati

Hayotga yorug' yo'ldir.

Otang bolasi bo'lma,

Odam bolasi bo'l, der..."

Maqolda "otang bolasi" va "el bolasi" birikmalari orqali *metafora* usuli yordamida xalqimiz insonni faqat o'z oilasiga emas, balki xalqiga ham xizmat qilishga undaydi. Jumladan, paremada ushbu birikmalari o'rtasidagi *kontrastni* ko'rish mumkin. Bu qarama-qarshilik shaxsning faqat o'z oilasiga emas, balki jamiyatga ham foydali bo'lishi kerakligini anglatadi. Paremada "bo'lma" va "bo'l" kabi bir xil ohangga ega bo'lgan fe'llar ishlatilgan. Bu fe'llar bir xilda tugashining natijasida maqolda *parallelizm*, musiqiy bir ohang paydo bo'lgan. Qirg'iz tilida bu maqolning mana bu variantini uchratishimiz mumkin: "Ама баласы болбосоң болбо, эл баласы бол". Bu parema ham shu ma'noni ifodalaydi. Ma'nosi: "Otang o'g'li bo'lma, xalqning farzandi bo'l". Ularda bu maqol kishini vatanparvar shaxs bo'lishiga da'vat etadi. Sinonimlari: "Er o'g'liman dema, el o'g'liman de", "Otam o'g'liman dema, odam o'g'liman de", "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l".

T/r	Ma'noviy guruhlar	Metoforik maqollar
1.	Holatni ifodalashga xizmat qiluvchi maqollar	1. <i>Erkak - avra, xotin astar</i> 2. <i>Qish bo'lsa burun quturar, yoz bo'lsa xotin</i>
2.	Qadriyat ulug'langan maqollar	1. <i>Mehmon otangdek ulug'</i> 2. <i>Kuyovni payg'ambarlarda siylagan</i>
3.	Qadrlilik darajasiga ko'ra maqollar	1. <i>Yaxshi xotin osh-nondek zarur</i> 2. <i>Sen mashinangni kursat, men otang kimligini aytaman</i>
4.	To'g'riso'zlik ulug'langan maqollar	1. <i>Gap kelganda otangni ham ayama</i>
5.	Vatanparvarlik tuyg'usi ulug'langan maqollar	1. <i>Otang bolasi bo'lma, el bolasi bo'l</i>
6.	Insonning ijobiy xislatlari ulug'langan maqollar	1. <i>Yaxshi xotin jon ozig'i</i> 2. <i>Yaxshi xotin suv kelsa, simiradi, tosh kelsa, kemiradi</i>
7.	Insonning salbiy xislatlari ulug'langan maqollar	1. <i>It vafu, xotin jafu</i> 2. <i>Erni er qiladigan xotin, qaro yer qiladigan ham xotin</i> 3. <i>Onasini ko'rda qizi ol, arqog'ini ko'rda bo'zini ol</i> 4. <i>Qarz uzilur, xotun yonga qolur</i>

Xulosa qilib aytganda, xalqning ijod mahsuli bo'lgan maqollar asrlar mobaynida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib kelgan bebaho boylik hisoblanadi. Ular tarkibida qo'llangan qavm-qarindoshlik terminlarini tadqiq etish ajdodlarimiz o'tmishi, turmush-tarzi, urf-odati va falsafasidan xabardor bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, bu terminlarni lingvopoetik tahlil qilish orqali o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini yaxshiroq anglash, qavm-qarindoshlik terminlari orqali xalqning o'zaro munosabat, qadriyat va ruhiyatlarini qanday aks ettirishini tushunish mumkin bo'ladi. Bu maqollarda tez-tez uchraydigan oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni, masalan, ota, ona, aka-uka, opa-singil kabi atamalar orqali jamiyatdagi turli qatlamlarni, ijtimoiy rollarni, bir-biriga bo'lgan hurmat va sevgi kabi hissiyotlarni o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, maqollar tarkibida qo'llangan metaforalarni tahlil qilish, ularning nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixologik nuqtayi nazardan ham qanday ahamiyatga ega ekanini ochib beradi. Bu jarayon o'zbek xalqining o'ziga xos fikrlash tarzini, qadriyatlarini va tarixiy tajribasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyot

Айтматов Ч. (1989). *Асрга татигулик кун*. Тошкент, Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Aytmatov Ch. (2009). *Sarvgomat dilbarim*. Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.

Берматов Э. (2006). *Ўзбек тилининг изохли лугати*. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Hoshimov O'. (2013). *Ikki eshik orasi*. Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.

Мурод Тоғай. (1994). *Отамдан қолган далалар*. Тошкент, Нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти.

Ойбек. (2016). *Навоий*. Тошкент, Ўзбекистон.

Рахматуллаев Ш. (2000). *Ўзбек тилининг этимологик лугати (туркий сўзлар)* / Жилд. Тошкент, Университет.

Хошимов Ў. (2002). *Тушда кечган умрлар*. Тошкент, Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Sharipova M. (2023). *Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari ("qo'y" lug'aviy-ma'naviy guruhi asosida)* / Buxoro davlat universiteti.

Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. (2001). *Маънолар маҳзани (Ўзбек мақолларининг изохли лугати)*. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.

Шухрат. (1995). *Олтин зангламас*. Тошкент, Щарк нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти.

Sharipova M., Bafoyeva D. (2024) *O'zbek xalq maqollarida ishtirok etgan qarindoshlik terminlarining semantik xususiyatlari*. ISSN (E): 2992-9148 SJIF 2024 = 5.333 ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2024 VOLUME-2, ISSUE-5.

Sharipova M., Bafoyeva D. (2024) *Qarindoshlik maqollarida geteronimik munosabat*. Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi filologik tadqiqotlar: muammo va yechim mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Buxoro.

Xilola Suyunova ONA TILI O'QITISHDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNING O'RNI VA HAAMIYATI	488
Balkar Turdiyeva TARJIMA MATNLARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI (MA'RIFATPARVAR SIYMOLAR ASARI TARJIMALARI ASOSIDA)	493
Oybek Eshonqulov OT, SIFAT VA SON TURKUMIDAGI SO'ZLAR TRANSPOZITSIYASI VA NEYTRALLASHUV	500
Mahliyoixon Tuxtasinova LEZBU DAGOVNING "СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ ТУРЕЦКО-ТАТАРСКИХ НАРЕЧИЙ" LUG'ATI VA UNING TUZILISH PRINSIPLARI	507
Eminli Böyükxanim SUNI INTELLEKTIN DİLÇİLİKDƏ TƏTBİQİ PROBLEMLƏRİ	517
Mohabbatxon Saidova DARSLIK TA'LIMNING YETAKCHI VOSITASI SIFATIDA	520
Shoira Bayxanova, Ozodaxon Boltabayeva KOMEDIYALARDA KONNOTATIV MA'NONING IFODALANISHI	525
Xayrulla Ibragimov, Malohat Usmonova SHE'RIY MATNLARDA OKKOZIONALIZMLAR	530
Sobir Ahmedov HUDUDNING JOYLASHISH O'RNIGA HAMDA RANG BELGISI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	534
Aslam Usmonov O'ZBEK TILI HAJVIY MATNLARIDA KULGI UYG'OTUVCHI VOSITALAR VA BIRLIKLAR PRAGMATIKASI	538
Maftuna Sharipova, Dilora Bafoyeva QARINDOSHLIK TERMINLARI ISHTIROK ETGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA METAFORA	543
Xasiyat Bekmirzayeva TONG TURK DIYORILARIDAN OTAJAK	550
Dilafruz To'xtayeva MAQOLLARDA KATEGORIYALARARO MUNOSABAT	554